

ABDULLA AVLONI'S SCHOOL TEXTBOOKS EDUCATIONAL DIRECTIONS AND TASKS

Karimova Jahona

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti 2-kurs talabasi

Jahonakarimova1707@gmail.com

+998937878776

Annotation

Briefly about Avloni, Avloni has been working for more than 30 years. He witnessed the labor events of 1916, followed by revolutionary upheavals and national liberation struggles. In the past, he said, he had "left dozens of poems and school books, four theater books. When talking about its place in the history of our culture, it is necessary to emphasize two aspects: pedagogical activity and literary art. His pedagogical activity and ideas about education are important sources in defining the features of enlightenment, which reached a new level in the early twentieth century. The Avloni school was built on the basis of humanistic and free education, with the main task of teaching children secular and advanced science, and ensuring that young people have the ability to participate in the socio-political life of the country. In the article, we will witness his pedagogical activity, his educative behavior, his appeal to science, his encouragement to goodness and intelligence.

Keywords

Education, science, activity, Avloni, description, purpose of education, nation, thinking, knowledge, school, mind, intelligence, intellect, example, society, culture, cultural ideal.

Tarbiya-«Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususda bir oz so'z so'ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur. Zeroki, «Hassinu axloqiko'm» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg'a amr o'linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadur. Axloqimizning binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur, ba'zilar «tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shunday o'sarlar, tabiat o'zgarmas», - demishlar. Yomon xo' tuzalmaydi darmon ila, Ipak o'lmas ip, rangi alvon ila. Boqing, bir daraxt mevasidur yomon, Bo'lur yaxshi payvand, parvo bilan. Bilur har kishi asl ini rangidan, Va yokim ulangandagizangidan». Lekin bu so'z to'g'ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqqa, albatta, ta'siri bo'ludur. Oramizda masal borki, «sut ila kirgan, jon ila chiqar», mana bu so'z to'g'ridur. Rasuliakram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Beshikdan to mozorga borguncha ilm o'rgan», - demishlar. Bu hadisi sharifning ma'nosi bizlarga dalildur. Hukamolardan biri: - «Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'ludur», - demish. Shariati islomiyada o'z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak otalarga farzi ayn, o'z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadur. Payg'ambarimiz: «Bolalaringizni yetti yoshida namozga o'rgatingiz. Agar o'n yoshida o'qimasa uringiz», - demishlar.

Har kishining dunyoda oromijoni tarbiyat,
Balki oxirida erur dorulamoni tarbiyat. Tarbiyat hamroh etadur hur ila ruzvonlara,
Gar desam bo'lmas xato jannat makoni tarbiyat.
Ey, Otalar! Jonlaringizdan suchuk farzandingiz,
G'ayrat aylang o'tmasun vaqt-zamoni tarbiyat.

Moyai zilli xumodur tarbiyatning soyasi, Bizda anqo tuxmidek yo'q oshyoni tarbiyat. Farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u davlat, jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk ijtimoiy ishdur, u shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog'liq. Avloniy so'zlari bilan aytganda «... tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir». Abdulla Avloniy inson tarbisini bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan uch yo'nalishga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi. Inson uchun avvalo badan salomat bo'lmog'i zarurdir, badan soq bo'lgandagina inson uchun zarur bo'lgan boshqa amallarni singdirish mumkin. Buning uchun ichkilik, ko'knor, nasha kabi inson badanini bevaqt zalolatga, tubanlikka olib boruvchi, salomatlikka zarar, «ba'zi harom, ba'zi makruh» narsalardan asrash kerak. Bu esa Avloniy yozishicha, fikr tarbiyasi uchun zamin yaratadi. Fikr tarbiyasi farzandni komil inson amalga oshirishda asosiy mas'uliyat o'qituvchi zimmasiga tushadi. Chunki muallim dars jarayonida o'quvchilarni fikrlashga, hari qanday voqyeahodisaning mohiyatini chuqur idrok qilishga o'rgatadi. Bu o'rinda A. Avldoniy ta'lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatinnig ifodasi bo'lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharafiga, barkamollikka erishadi, bu o'rinda o'kituvchinnig fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasinnig har jihatdan yuksakligi o'quvchilari tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o'quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo'lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo'lishga o'rgatadi. Abdulla Avloniy asarnnig «Yaxshi xulqlar» bobida fatonat, diyonat, islomiyat, nazorat, g'ayrat, riyozat, qanoat shijoat, ilm, sabri hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni sevmoq, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, darajasiga ko'tarishda muhim omil hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda asosiy mas'uliyat o'qituvchi zimmasiga tushadi. Chunki muallim dars jarayonida o'quvchilarni fikrlashga, hari qanday voqyeahodisaning mohiyatini chuqur idrok qilishga o'rgatadi. Bu o'rinda A. Avldoniy ta'lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatinnig ifodasi bo'lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharafiga, barkamollikka erishadi, bu o'rinda o'kituvchinnig fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasinnig har jihatdan yuksakligi o'quvchilari tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o'quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo'lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo'lishga o'rgatadi. Abdulla Avloniy asarnnig «Yaxshi xulqlar» bobida fatonat, diyonat, islomiyat, nazorat, g'ayrat, riyozat, qanoat shijoat, ilm, sabri hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni sevmoq, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rijo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat, afv haqida atroflicha fikr yuritadi, o'z qarashlarini dalillash uchun Qur'oni karim oyatlaridan, hadisi sharifdan namunalar, ulug' mutafakkirlar Aflotun, Arastu, Suqrot, Buqrot, ibn Sino, Mavlono Rumsiy, Shayx Sa'diy, Mirzo Bedil fikrlarini keltiradi. Jadidchilik harakati namoyandalari qarbiy Yevropa ma'rifatparvarlari kabi ilm-ma'rifatni, zamonaviy taraqqiyotni bayroq qilib ko'tardilar, taraqqiyotga to'g'anoq bo'layotgan mutaassib ulamolarga, qadimchilarga qarash keskin kurash olib bordilar. Shuni unutmash kerakki, o'zbek ma'rifatparvarlarining Yevropa ma'rifatparvarlaridan ajralib turadigan asosiy jihati shundaki, ularnig faoliyati zaminida millatni mustamlakachilik zulmidan ozod etish, istiqlol g'oyasi yotar edi. Shuning uchun ham jadid mutafakkirlari oq va qizil imperiyaga birday ma'qul emas edilar. Abdulla

Avloniy pedagogik qarashlarida aql va ilmning yuksak darajada ulug'lanishi bevosita insonni ulug'lash bilan uzviy bog'lanadi. Chunki Olloh insonni barcha mavjudodlardan, mahluqotlardan ulug' qilib yaratdi. Unga ikki dunyo saodatiga erishishdek buyuk maqsad uchun Aql berdi. Inson shu Aql yordamida ilmni a'rifatni, taraqqiyotni egallaydi, dunyoni boshqaradi. Mana A. Avloniyning aqlga bergan ta'rif: «Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir... Janobi haq insonni hayvondan so'z va aql ila ayirishdur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallallahu alayhi vassalam afandimiz: «Ey insonlar! Aqlingizga tavoze' qilingiz. Siz janobi haq buyurgan va qaytargan narsalarni aqlingiz ila bilursiz», demishlar». Abdulla Avloniy inson salomatligi to'g'risida fikr yuritarkan ekan, uning asosiy omillaridan biri tozalika haqida alohida bob ajratadi. «Nazofati» deb nomlanuvchi bobida odamni xalq o'rtasida hatto Olloh qoshida sevimli qiladigan vosita pokizalik - nazofatdir. Inson nafaqat o'z badanini, kiyim-kechagini, shu bilan birga, yashab turgan joyini, muhitni, shahrini pokiza saqlashi kerak. Atrofmuhitning nopokligi turli-tuman kasalliklarning paydo bo'lishiga sababdir. Afsus bilan aytish kerakki, Avloniy yashab turgan va undan keyin ham mustamlaka ma'murlari o'lkannig obodonchiligi va aholisinnig salomatligini xayollaoriga ham keltirmadilar, faqat shaharlarning mustamlakachilari yashaydigan qismigagina e'tibor berdilar. 1907 yilnig oxirlarida Turkiston o'lkasiga sayohat qilgan atoqli tatar ma'rifatparvari, yozuvchisi Abdurashid qozi Ibrohimov (kelib chiqishi o'zbek) chor Rusiyasining Turkiston o'lkasida olib borayotgan dahshatli mustamlakachilik siyosatini fosh etgan edi: «Rus Toshkandida qoyat tartibli bino va savdo uylari, tekis uylar, elektr nurlarida sayr qilib yurishlar Ovruponing bir namunasidir. Ammo musulmon Toshkendi aksincha. Ilk bahorda, bahor oxirida shahar ichida uylardan piyoda yurib o'tishning ham iloji bo'lmay qoladi. Buni hatto so'z bilan ham ta'riflab bo'lmaydi... holbuki, shahar bir shahardir, Toshkanddir, idorasi, kirim-chiqimi bir, umum aholisinnig asosiy qismi musulmonlardir. Daromad asosan musulmon qismidan olinur, sarfharajatlari faqat 60 xristian qismiga ajratilur. hokimiyat qudrati ruslarda, mamlakat daromadi ham ruslarda. Rus qismlaridagi yo'llarga umum daromaddan pul ajratiladi, ammo musulma. Avloniy «Turkiy guliston...» asarida ushbu masalaga «Ilm» va «Aqsomi ilm» boblarini ajratgan. Aql ilm tajriba bilan kamol topadi. Avloniy fikricha, ilm har ishda bizga rahnamo, ikki dunyo saodatiga noil etuvchi uluq ne'matdur. Ilmsiz kishi mevasiz daraxt kabi dur. Uning eng yaqinlarigagina ema hatto o'ziga ham foydasi tegmas. Asar muallifi ilmni ikki qismga: ilmi diniy va ilmi faniyga ajratadi. Ammo u bu ismlar o'rtasiga to'siq qo'ymaydi, aksincha, diniy kishi bo'lish uchun ham hisob, handasa, tarix, hikmat, tib, kimyo, ziroat kabifanniy ilmlarni o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Muallif fikricha, har bir millatning taraqqiy va taoliysi yoshlarning ilm va ma'rifatiga, hunar va san'atiga bog'liqdir. Ammo bizdagi: «Ajabo Qur'onimiharakat qilmaymiz, boshqa millatlarnig o'g'ullari qizlari kecha demay, kunduz demay, yoz demay, qish demay ilm yo'lida jonlarini fido qilub, qovushub, yugurushib, ko'zlarimizni qamashdurib turgan bir zamonda bizlar hamon uyqudan g'aflatdan, jaholatdan boshimizni ko'tarmaymiz, ibrat olmaymiz. Payqambarimiz: «Olim bo'l, ilm talab qiluvchi bo'l, yoki ilmni eshituvchi bo'l, hech bo'lmasa, shularga muhabbat qiluvchi bo'l, beshinchisi bo'lma, halok bo'lursan», - demadilarmu?» Bundan ham kattaroq to'siq mustamlakachi ma'murlar bo'lib, o'lkada har qanday ijobiy yangilikni, ayniqsa, maorif sohasidagi o'zgarishlarga, «usuli jadid» maktablarining xalq ma'naviyatiga kirib borishiga tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko'rsatar, ularga qarshi kurashda mutaassib ulamolardan usta'monlik bilan foydalanar edilar. Zamonaviy kasb-hunar maktablari, oliy o'quv yurtlari ochish, millatni ilm-ma'rifat kuridan bahramand qilishni mustamlaka ma'murlari xayollariga ham keltirmas z, Payg'ambarimiz o'qingiz, deb amr qilqon holda, bizlar na uchun edilar. O'zgina bo'lsa-da, rus tili va aniq fanlardan ibtidoiy tushunchaga ega bo'lish uchun esa rus-tuzem maktablaridagina o'qish mumkin edi, ammo bu maktablarning asl mohiyati, maqsadi ma'lum edi. 1907 yilda Turkiston o'lkasiga sayohat qilgan Abdurashid qozi Ibrahimov bu masalaga alohida e'tibor beradi. A. Avloniy mana shu tariqa sabr, hilm,

miqyosi nafs, intizom, vijdon kabi insoniy fazilatlarini haqida chuqur ma'noli fikrlari bayon qiladi. Ammo Vatan haqidagi qarashlari yanada muhimroq, yanada e'tiborliroq. Vatan Ona kabi yagona, Ona kabi muqaddas. Bu mavzu nechanecha adabiyot va san'at ahllari e'tiborini o'ziga jalb qilgan. E'tibor bering, 1970 yillar boshida Erkin Vohidov «O'zbekim», Abdulla Oripovnnig «O'zbekiston» qasidalari o'zbek xalqi orasida shunchalari aks sado berdiki, hatto sho'ro mafkurachilarini talvasaga solib qo'ydi. O'zbekiston bo'ylab birorta to'yu tomosha yo'qki, bu ikki she'r to'lib-toshib o'qilmasa yoki qo'shiq qilib aytilmasa. Nega millat histuyqularini shunchalarjunbushga soldi bu ikki she'r?! Ongimizga 100 yildan ortiq o'zga millatning o'zga vatanning «buyuk»ligini singdirib keldilar. Xalqimiz o'z millati va o'z Vatani haqida iliq bir so'zga intiq edi. XIX asrnnig 90yillari oxirlarida rus-tuzem maktablarida o'qiydigan mahalliy millat bolalari uchun S. M. Gromeniskiynig uch kitobdan iborat «Kniga dlya chteniya» («O'qish kitobi») asari darslik sifatida nashrdan chiqarildi. N. Ilminskiy qarashlari zaminida yaratilgan ushbu darslikda Rusiyani, rus xalqini ulug'lovchi, Rusiyani buyuk vatan sifatida ta'rif-tavsif etuvchi o'nlab nazmiy va nasriy matnlar yerilgan edi. Bu darslikning shovinistik maqsadini jidad pedagoglari tushunib yetgan va millat farzandlarini vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratgan edilar. Bu hol ular yaratgan har bir darslikda, har bir ilmiy, badiiy asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston...» asarida «Vatanni suymak» degan bob bor. Unda yosh qalblarda o'z Vatani Turkistonga nisbatan muhabbat tuyg'ularini mavjga keltiruvchi shunday misralar bor: mon qismdagilarning yo'llari nima bo'lsa bo'lsin, bir so'm ham ajratilmaydi: A. Avloniy «Turkiy guliston...» asarida ushbu masalaga «Ilm» va «Aqsomi ilm» boblarini ajratgan. Aql ilm tajriba bilan kamol topadi. Avloniy fikricha, ilm har ishda bizga rahnamo, ikki dunyo saodatiga noil etuvchi uluq ne'matdur. Ilmsiz kishi mevasiz daraxt kapidur. Uning eng yaqinlarigagina ema hatto o'ziga ham foydasi tegmas. Asar muallifi ilmni ikki qismga: ilmi diniy va ilmi faniyga ajratadi. Ammo u bu ismlar o'rtasiga to'siq qo'ymaydi, aksincha, diniy kishi bo'lish uchun ham hisob, handasa, tarix, hikmat, tib, kimyo, ziroat kabi fanniy ilmlarni o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Muallif fikricha, har bir millatning taraqqiy va taoliysi yoshlarning ilm va ma'rifatiga, hunar va san'atiga bog'liqdir. Ammo bizdagi: «Ajabo Qur'onimiz, Payg'ambarimiz o'qingiz, deb amr qilqon holda, bizlar na uchun harakat qilmaymiz, boshqa millatlarnig o'g'ullari qizlari kecha demay, kunduz demay, yoz demay, qish demay ilmyo'lida jonlarini fido qilub, qovushub, yugurushib, ko'zlarimizni qamashdurib turgan bir zamonda bizlar hamon uyqudan g'aflatdan, jaholatdan boshimizni ko'tarmaymiz, ibrat olmaymiz. Payqambarimiz: «Olim bo'l, ilm talab qiluvchi bo'l, yoki ilmni eshituvchi bo'l, hech bo'lmasa, shularga muhabbat qiluvchi bo'l, beshinchisi bo'lma, halok bo'lursan», - demadilarmu?» Bundan ham kattaroq to'siq mustamlakachi ma'murlar bo'lib, o'lkada har qanday61 ijobiy yangilikni, ayniqsa, maorif sohasidagi o'zgarishlarga, «usuli jadid» maktablarining xalq ma'naviyatiga kirib borishiga tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko'rsatar, ularga qarshi kurashda mutaassib ulamolardan usta'monlik bilan foydalanar edilar. Zamonaviy kasb-hunar maktablari, oliy o'quv yurtlari ochish, millatni ilm-ma'rifat kuridan bahramand qilishni mustamlaka ma'murlari xayollariga ham keltirmas edilar. Ozgina bo'lsa-da, rus tili va aniq fanlardan ibtidoiy tushunchaga ega bo'lish uchun esa rus-tuzemmaktablaridagina o'qish mumkin edi, ammo bu maktablarning asl mohiyati, maqsadi ma'lum edi.1907 yilda Turkiston o'lkasiga sayohat qilgan Abdurashid qozi Ibrahimov bu masalaga alohida e'tibor beradi. A. Avloniy mana shu tariqa sabr, hilm, miqyosi nafs, intizom, vijdon kabi insoniy fazilatlarini haqida chuqur ma'noli fikrlari bayon qiladi. Ammo Vatan haqidagi qarashlari yanada muhimroq, yanada e'tiborliroq. Vatan Ona kabi yagona, Ona kabi muqaddas. Bu mavzu nechanecha adabiyot va san'at ahllari e'tiborini o'ziga jalb qilgan. E'tibor bering, 1970 yillar boshida Erkin Vohidov «O'zbekim», Abdulla Oripovnnig «O'zbekiston» qasidalari o'zbek xalqi orasida shunchalari aks sado berdiki, hatto sho'ro mafkurachilarini talvasaga solib qo'ydi. O'zbekiston bo'ylab birorta to'yu tomosha

yo'qki, bu ikki she'r to'lib-toshib o'qilmasa yoki qo'shiq qilib aytilmasa. Nega millat histuyqularini shunchalar junbushga soldi bu ikki she'r?! Ongimizga 100 yildan ortiq o'zga millatning o'zga vatanning «buyuk»ligini singdirib keldilar. Xalqimiz o'z millati va o'z Vatani haqida iliq bir so'zga intiq edi. XIX asrnnig 90yillari oxirlarida rus-tuzem maktablarida o'qiydigan mahalliy millat bolalari uchun S. M. Gromeniskiyng uch kitobdan iborat «Kniga dlya chteniya» («O'qish kitobi») asari darslik sifatida nashrdan chiqarildi. N. Ilminskiy qarashlari zaminida yaratilgan ushbu darslikda Rusiyani, rus xalqini ulug'lovchi, Rusiyani buyuk vatan sifatida ta'rif-tavsif etuvchi o'nlab nazmiy va nasriy matnlar yerilgan edi. Bu darslikning shovinistik maqsadini jidad pedagoglari tushunib yetgan va millat farzandlarini vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratgan edilar. Bu hol ular yaratgan har bir darslikda, har bir ilmiy, badiiy asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston...» asarida «Vatanni suymak» degan bob bor. Unda yosh qalblarda o'z Vatani Turkistonga nisbatan muhabbat tuyg'ularini mavjga keltiruvchi shunday misralar bor:

TARBIYA MAQSADI VA VÀZIFALARI

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Eng oddiy harakatdan tortib to keng ko'lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Maqsadsiz, ma'lum g'oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo'lmaydi. Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

“Tarbiya”, “tarbiyalash” tushunchalarini tahlil etib ko'radigan bo'lsak. Pedagogik adabiyotlarda bu so'z odatda – ongli ravishda shaxsga (individual) uni biron-bir ijtimoiy rol ni bajarishga tayyorlash uchun ijtimoiy ta'sir etish, buning uchun o'sha shaxsda zarur bo'ladigan sifatlarni paydo qilish “yaratish” tarzida ifodalanadi. Bunda tarbiya ishi bilan maxsus tuzilgan ijtimoiy muassasalar shug'ullanishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra “tarbiya” va “ta'lim berish” tushunchalari yozilganda turlicha yozilsalarda, ammo ma'nosiga ko'ra birbiriga juda yaqin turadilar. Tarbiya, ta'lim berish ishlari aniq bir maqsadga qaratilgan faoliyat bo'lgani uchun u kishidagi qanday qobiliyatlarni, sifatlarni konkret ravishda rivojlantirishga qaratilganligiga qarab (intellektual, emotsional, siyosiy, ahloqiy, estetik va x.k.) u differensiyalanadi, ya'ni tabaqalanadi. Tarbiyaviy faoliyatning mana shu aspektlari, ularning mazmuni, o'ziga xos maqsadlari, uslublari tegishli fanlar tomonidan tadqiq qilinadi. Natijada tarbiya jarayonini o'rganish yanada ko'proq kompleks xarakter kasb etib, integrasiyalash, ularni umumlashtirish uchun katta zaruriyat paydo bo'ladi. O'z navbatida, yig'ilgan bilimlarni umumlashtirish dastlab sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi va faqat shundan keyingina falsafiy darajada amalga oshiriladi.

Tarbiya haqida tushuncha. Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi. YOsh avlodni tarbiyalashda nimalarga e'tibor qaratmoq lozim? Bunday masalalarni hal etishda avvalo mamlakatimizda siyosiy-ijtimoiy sohalarda yuz berayotgan islohatlar mohiyatini chuqur va atroflicha mushohada qilib olishga to'g'ri keladi. CHunki davr ham, inson tarbiyasi ham o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, XXI asr insoniyat tarixida kompyuter davri bo'lib kirib keldi Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega

shaxsni tarbiyalashda etakchi o'rin tutadi. Bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash, hotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, mayillik va iqtidorni rivojlantirishga ko'maklashadi. Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab etakchi o'rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki bolalar ma'lum muddatgina maktab, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtning asosiy hismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'til davrlarida o'quvchilar maktab, o'qituvchi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, maktabda bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining tarbiyaviy ta'siri va nazoratidan uzoqlashadilar. Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi nazariyasi g'oyasiga muvofiq endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining ob'ektigina bo'lib qolmasdan, sub'ektiv sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlar, ahborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda, mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi. Hozirgi sharoitda insonga ijtimoiy muhit ko'rsatayotgan ta'sirini quyidagicha tasnif etish mumkin: Birinchidan, har bir insonga bo'lgan global ta'sir, ya'ni radio, televidenie, matbuot, kino va hokazolar orqali axborot almashinuvi;

Ikkinchidan, mamakat va mintaqa miqyosidagi ijtimoiy ta'sir insonni mavjud shart-sharoitlar doirasida inson dunyoga kelishidan to hayotdan ko'z yumgunigacha o'z orbitasida tutib turadi;

Uchinchidan, insonni avval boshidan o'rab turgan mikromuhit – oila, maktab, ko'cha va hokazolar o'z ta'siriga oladi.

Anna shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, inson shaxsning tarbiyalanishidagi birinchi bosqich – oiladir. Oila bioijtimoiy sifatga ega bo'lgan tuzilma sifatida jamiyatning barqaror va dastlabki bo'g'inidir. Oilada go'dak ilk bor ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni anglamagan holda o'zlashtiradi va ular zamirida faolligini asta-sekinlik bilan oishirib boradi. Maktab, turli ijtimoiy guruhlar (masalan, tengdoshlar, sport uyushmalari va boshqalar) bilan muloqat davomida madaniy ideallik qaror topa borib, shaxs shakllanishining muhim manbaiga aylanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston, yoxud axloq. T., 2008.
2. Mustaqillik davri adabiyoti. Toshkent., 2004.
3. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent "Ma'naviyat" 2004.
4. Mirzayev S. O'zbek adiblari. "Fan". 2002.
5. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. T., 2008.